# O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISH SAMARADORLIGI

**Davlatova Saida Tojimuxammadovna**
*Qo‘qon Unversiteti Ta’lim kafedrasi katta o‘qtuvchisi*
**Rahmonjonova Ro‘zixon Rustamjon qizi**
*Qo‘qon Unversiteti, FTO‘- 5-25 guruh 1- bosqich talabasi.*
*rozixonrahmonjonova@gmail.com.*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida raqamli pedagogik texnalogiyalarining qo‘llanish samaradorligi ilmiy manbalar va real statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, interaktiv ilovalar va sun’iy intelektga asoslangan vositalarning o‘quvchilarning lug‘at boyligi, nutqiy faolligi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalariga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, o‘qtuvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish zaruryati va dars jarayonida innovatsion metodlar qo‘llanishning afzalliklari hamda UNICEF va davlat tashabbuslari orqali maktablarning keng qismi internet va texnik vositalar bilan ta’minlangani hamda Eduten platformasi natijasida o‘quvchilarda 16,9% o‘sishi qayd etilgani ta’limda raqamli vositalarning ahamiyatini tasdiqlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *raqamli pedagogika, o‘zbek tili ta’limi, innovatsion texnalogiyalar, raqamli platformalar, sun’iy intelekt, interaktiv metodlar, Eduten platformasi, o‘quv jarayoni, ta’lim samaradorligi.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется эффективность применения цифровых педагогических технологий на уроках узбекского языка на основе научных источников и реальных статистических данных. Освещается влияние цифровых платформ, интерактивных приложений и инструментов, основанных на искусственном интеллекте, на развитие словарного запаса, речевой активности и навыков самостоятельного обучения учащихся. Также рассматривается необходимость повышения цифровой компетентности преподавателей и преимущества использования инновационных методов в учебном процессе. Отмечается, что благодаря инициативам ЮНИСЕФ и государства большинство школ обеспечены интернетом и техническими средствами, а использование платформы Eduten привело к росту показателей учащихся на 16,9%, что подтверждает важность цифровых средств в образовании.*

**Ключевые слова:** *цифровая педагогика, обучение узбекскому языку, инновационные технологии, цифровые платформы, искусственный интеллект, интерактивные методы, платформа Eduten, учебный процесс, эффективность обучения.*

**Abstract:** *This article analyzes the effectiveness of applying digital pedagogical technologies in Uzbek language lessons based on scientific sources and real statistical data. The study highlights the impact of digital platforms, interactive applications, and artificial intelligence-based tools on students’ vocabulary development, speech activity, and*

*independent learning skills. The necessity of enhancing teachers’ digital competence and the advantages of using innovative methods in the learning process are also discussed. It is noted that, thanks to UNICEF and government initiatives, most schools are equipped with internet access and technical resources, and the use of the Eduten platform resulted in a 16.9% improvement in student performance, confirming the significance of digital tools in education.*

**Keywords:** *digital pedagogy, Uzbek language education, innovative technologies, digital platforms, artificial intelligence, interactive methods, Eduten platform, learning process, educational effectiveness.*

## Kirish

Raqamli transfarmatsiya jarayonining jadal kechayotgan bugungi davrida ta’limning barcha bosqichlari zamonaviy texnalogiyalar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Xususan o‘zbek tili ta’limi ham an’anaviy usullarda raqamli pedagogila yondashuvlariga o‘tib, o‘quv jarayoning sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, multimediya vositalari,sun’iy intelektga asoslangan til o‘rganish servislarining paydo bo‘lishi o‘zbek tili darslarini ko‘proq qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. Ushbu texnalogiyalar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojhlantirish, til materiallarini tezroq o‘zlashtirish, nutqiy kompatensiyalarni shakllantirish va dars jaryonida faol ishtirok etish imkonini yaratadi. Shuningdek, raqamli vositalar orqali berilayotgan matnlar, mashqlar, videodarslar, testlar va interaktiv topshiriqlar o‘qituvchiga individual yondashuvni amalga oshirish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sanaladi.O‘zbek tili ta’limida raqamli pedagogik texnalogiyalarni to‘g‘ri tanlash va metodik jihatdan asosli qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning raqamli savodxonligini ham rivojlantiradi.

## Asosiy qism

So‘nggi yillarda ta’limda raqamli texnalogiyalar va pedagogik innovatsiyalar keng tatbiq etilmoqda. International Journal of Artificial Intelligence 2025-yilda e’lon qilingan “Impact of Digital Tools on Language Learning Methodologies” maqolasiga ko‘ra, til o‘rgatishda mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun’iy intelekt asosidagi tizimlardan foydalanadigan guruhlar an’anaviy dars metodlari bilan shug‘ullangan guruhlarga nisbatan nutqiy qobilyatlar, lug‘at boyligi va yozma ko‘nikmalarida sezirarli yaxshilanish ko‘rsatgichiga erishgan.Xususan ushbu, tadqiqotda raqamli vositalar qo‘llanilgan guruhdagi talabalarda o‘qishga motivatsiya oshib,mustaqil o‘rganish va kommunikativ kompetensiya rivojlangani qayd etilgan.Bu esa shuni ko‘rsatadiki agar raqamli pedagogik texnalogiyalar metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilinsa, u til o‘rgatish jarayonini samarali va zamonaviy qiladi.[1]

Shunindek, O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiya yo‘lida sezirarli qadamlar qo‘yildi.UNICEF va hukumat hamkorligida olib borilayotgan ishlarga ko‘ra, mamlakat maktablarining katta qismi-taxminan 78%-kamida asosiy axborot kamunikatsiya

texnalogiyalari(kompyuter,internet) bilan ta’millangan. Bundan tashqari, Giga tashabbusi orqali maktablarning internetga ulanishi 2018-yilda atiga 7% bo‘lsa, hozirgi vaqtda deyarli barcha maktablar internetga ulangan deb hisoblanadi.[2] Raqamli maktablarga o‘tish siyosatining amaliy natijasida 2023-2024 yillarda yangi maktablar barpo etildi:oxirgi besh yil ichida 748ta maktab qurilgan, va2023/2024 o‘quv yilidan boshlab maktablar elektron darsliklar, axborot texnalogiyalari va raqamli resurslar bilan jihozlanmoqda.[4]

Raqamli pedagogik vositalar va platformalardan foydalanish dars sifatini oshirishda ham o‘z samarasini berdi. Masalan, 2023-yilda UNICEF hamkorligida ishga tushirilgan Eduten sun’iy intelekt asosidagi matematika o‘quv platformasi bilan tajriba o‘tkazildi, 12 haftalik pilot loyihada 5-sinf o‘quvchilari matematika bo‘yicha o‘rganish ko‘nikmalarida o‘rtacha +16,9% yaxshilanish qayd etildi.[3] Bu natija shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar nafaqat ko‘ngilochar xarakterga ega, balki o‘quvchilar bilim darajasini oshirish va tushunchalarini chuqurroq egallashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari 2025-yilda UNICEF O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qituvchilar yetakchi rolini saqlagan holda, raqamli transformatsiyani kengaytirish taklif qilinmoqda. Qayd etilishicha, mamlakat bo‘yicha 540000 maktab o‘qtuvchisi va 147000 maktabgacha ta’lim pedagoglari raqamli metodlar va vositalardan foydalangan holda dars berishni davom ettiradi. Shuningdek,raqamli resurslar va malaka oshirish dasturlariga (multimediya resurslari,onlayn platformalar,blended learning) joriy etilgan. Bular o‘quv-tarbiyaviy jarayonni modernizatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, raqamli ta’limni kengaytirish bilan birga muammolar ham mavjud. Mahalliy ilmiy tahlilarda ta’kidlanishicha, garchi 78% maktablar infrotuzilmaga ega bo‘lsa ham, qishloq hududlarida bu ko‘rsatkich pastroq bo‘lib, raqamli vositalardan samarali foydalanish imkoniyati chegaralangan.Bundan tashqari, faqat jihozlardan iborat infratuzilma yetarli emas-raqamli pedagogik yondashuvlar tatbiqi, o‘qituvchi malakasi, sifatli elektron content va metodik jihatlarham muhim sanaladi.

Raqamli transfarmatsiyaning bu holatlari-yangi maktablar qurilishi, maktablarning internet va kompyuter bilan ta’minlanishi, raqamli platformalardan foydalanish, o‘qituvchilarga ko‘nikma berish-ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va yanada moslashuvchan qilishga yordam bermoqda. Ayniqsa, interaktiv darslar, individual yondashuv, o‘quvchilarning mustaqil izlanishi va o‘z-o‘zini baholash kabi imkoniyatlar o‘zbek tili darslarida hamda, boshqa fanlarda samaradorlikni oshirish potensialini beradi.

Shuningdek Islom taraqqiyot banki ko‘magida yaratilgan, aralash ta’lim muhitida o‘qtuvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun sun’iy intellect asosidagi raqamli va multimedia resurslarini ishlab chiqishga mo‘ljallangan Jalinga studyasi.

UNICEF barcha bolalar uchun sifatli ta’limni ta’minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan xalqaro standartlarga muvofiq o‘qtivchilar malakasini oshirish bo‘yicha hamkorlikni davom ettirmoqda.

UNICEF, shuningdek, kelgusi besh yil ichida barcha o‘qituvchilarning zamonaviy o‘qitish usullari va raqamli ko‘nikmalar bilan qurollantirish uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda.Takomillashtirilgan o‘quv dasturlari va raqamli texnalogiyalar jadal o‘zgarib borayotgan dunyoda O‘zbekistondagi 6,5

milliondan ortiq maktab o‘quvchilari va maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qariyb 2,4 million qiz o‘g‘il bolalar uchun manfaatli bo‘ladi.

Rehina Kastijo so‘zi yakunida shunday dedi: “O‘qituvchi va murabbiylar kunida O‘zbekiston bo‘ylab milliy o‘zgarishlarning haqiqiy me’morlari va mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan 600 mingdan ortiq pedagog xodimlarga chuqur hurmatimizni izhor etamiz”.[5]

**Xulosa**

UNICEF O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlikda o‘qtuvchilarning kasbiy rivojlanishi qo‘llab -quvvatlash,raqamli innovatsiyalarni joriy etish va inklyuziv amaliyotlarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Press-relizda shuningdek maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarining soni, raqamli platformalar va treninglar orqali ularning ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha yirik miqyosli ishlar davom etayotgani qayd etilgan. Umumam olganda, raqamli texnalogiyalar tavsiya etilgani, ular ta’lim sifati va o‘quvchi natijalarini yaxshilash uchun o‘qituvchilarining faol yordami bilan qo‘llanish kerakligi ta’kidlangan.

Shuningdek O‘zbekiston maktab ta’limida raqamli pedagogik texnalogiyalar joriy etilishi-infrotuzilma jihatidan keskin rivojlanish, raqamli vositalar va platformalardan foydalanish orqali o‘quv va pedagogik jarayonlarmi modernizatsiyalash imkonini yaratmoqda.Ammo barqaror va keng qamrovli raqamli ta’lim tizmini shakllantirish uchun ham zamonaviy infrastruktura, ham pedagoglarning raqamli savodxonligi, sifatli kontent va metodik ta’minot talab qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov, B. “Language Learning and Digital Tools: New Trends”. International Journal of Artificial Intelligence, 2025.
2. UNICEF — Connecting Uzbek schools to the internet and students to information (2022)
3. UNICEF. Digital learning – innovative approach in education system in Uzbekistan. [Online]. Available:
4. UZA. Number of schools in Uzbekistan increased by 748 over past 5 years. [Online]. Available:
5. UNICEF. UNICEF calls for a teacher-led digital transformation in Uzbekistan’s education sector (press-release, 1 October 2025).